

**DINIY E'TIQOD VUJUDGA KELISHIDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK
HOLATLARNING O'RNI**

D. Shokirov

Amaliy psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Qo'qon davlat pedagogika instituti O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada insonlarda diniy e'tiqod qanday paydo bo'ladi? Bu e'tiqodlarning tug'ilishiga va saqlanishiga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat? Din va diniy e'tiqodlar vujudga kelishining sabablarini o'rganayotganda ijtimoiy-psixologik holat va jarayonlarning o'zaro munosabatlarini o'rganish talab etiladi.

Аннотация

В этой статье как проявляется религиозная вера у людей? Каковы факторы, влияющие на зарождение и сохранение этих верований? При изучении причин возникновения религии и религиозных верований необходимо изучать взаимодействие социально-психологических условий и процессов.

Annotation

In this article, how does religious belief appear in people? What are the factors influencing the birth and maintenance of these beliefs? When studying the reasons for the emergence of religion and religious beliefs, it is necessary to study the interaction of socio-psychological conditions and processes.

Kalit so'zlar: din, diniy e'tiqod, ruhiy holatlar, emotsiyalar insoniyat, qadriyat, shaxs, jamiyat, yo'nalganlik, dunyoqarash.

Ключевые слова: религия, религиозные убеждения, психические состояния, эмоции, человечество, ценность, личность, общество, направленность, мировоззрение.

Keywords: religion, religious beliefs, mental states, emotions, humanity, value, personality, society, orientation, worldview.

Turli tarixiy davrlarda jamiyatlarda dinga qanday munosabat bo'lishidan qanday nazar, doimo ular oldida bir savol ko'ndalang bo'lib turgan. Ya'ni insonlarda diniy e'tiqod qanday paydo bo'ladi? Bu e'tiqodlarning tug'ilishiga va saqlanishiga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?

Din va diniy e'tiqodlar vujudga kelishining sabablarini o'rganayotganda ijtimoiy-psixologik holat va jarayonlarning o'zaro munosabatlarini o'rganish talab etiladi.

Ko'pgina tadqiqotchilar gnosologik tushuncha mazmuniga inson ruhiy faoliyatining barcha jarayonlarini kiritishadi. Darhaqiqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, tushuncha va tasavvurlar olamini bilish asoslari hisoblanadi. Bu ruhiy jarayonlar esa, borliqni inson qanday bilib olishiga ta'sir etib, shu jumladan, diniy e'tiqodlarning vujudga kelishiga ham ta'sir etadi.

Psixologik tushunchaga esa aksariyat mualliflar asosan, shaxsning emotsional holatlari-tuyg'ular, kechinmalar va kayfitlarini kiritishadi xolos. Aslida bu ancha jo'n va tor yondoshish hisoblanadi. Chunki insonning bu emotsional xolatlari, uning bilish va irodaviy jarayonlarisiz vujudga kelmaydi. Shuningdek, xissiy xolatlar shaxsning bilishga bo'lgan munosabatlarini bildirib, "Fan" rolini o'ynab, jarayonlarigi uning tashqi tasviri va belgilari sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, sizni anchadan beri qiynab kelayotgan muammoning yechimini kitobdan o'qib yoki ustozan bilib oldingiz. Sizda qoniqish, xursandlik kayfiyati vujudga keldi yoki aksincha, biror narsani o'qib tushunmayapsiz...norozilik, qoniqmaslik kabi kechinmalar tug'iladi¹.

Ayni vaqtda shu fan u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanishiga keyinchalik shaxsning dunyo qarashlari vujudga kelishiga asos bo'ladi.

Shuning bilan birgalikda emotsional holatlarni faqat gnosologik jarayonlarning tashqi belgilari, ko'rinishlari bilan hamcheqlab bo'lmaydi. Chunki emotsional xolat-shaxsning individual xususiyatlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, namoyon bo'lish dinamikasi jihatdan bir-biridan farqlanadi.

Ruhiy xolatda emotsiyalar bilan birga shaxsning ruhiy avzoi (nastroy) emotsional xolatdan farqli ravishda bunda inson ijtimoiy burch nuqtai nazaridan o'ziga yoqmaydigan faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin.

Shaxsning ruhiy avzoi - bu bir qancha ruhiy jarayonlar, xolat va qonunyalarni birlashtirgan tuzilma bo'lib, shaxs ruhiyatining ayni paytdagi biror narsaga yo'nalganlik (napravlenost) darajasini belgilaydi.

Shaxsning ruhiy avzoi bir qancha vazifalarni bajaradi. U avvalo, individ tomonidan qabul qilinayotgan, qayta ishlanayotgan alumotlarni to'plash (akkumlyator), shaxs faolligini tartibga keltiruvchi, uyg'unlashtiruvchi shuningdek informatsiyalarni qabul qilish faoliyatlarni tashkil etish uchun ustanovka (attitude), rolini o'ynaydi, va nihoyat, shaxsning qadriyatlariga yo'nalganligini belgilovchi faktor vazifasini bajaradi.

Ruhiy avzoning vujudga kelishida ma'lum vaziyat bilan birga, shaxs e'tiqodi, dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi asosda vujudga keluvchi konstantlik (turg'unlik) qonuniyatiga ham ta'sir etadi.

Deylik, sizda diniy e'tiqod kuchli shakllangan, ya'ni konstantlik darajasida mustahkamlangan, shuning uchun din haqida daxriylar qanchalik dalillari bilan gapirmasin, sizning e'tiqodingiz bu ma'lumotlarni qabul qilmaydi.

Shulardan ko'rinish turibdiki, psixologik xolatni faqat emotsialar bilan belgilab bo'lmaydi. Dindan xoli, dunyoviy psixologlar bunga o'xshash raqamlarga «Psixologik ta'sirlar» deb izoh berishadi. Bu shuni anglatadiki, diniy e'tiqod odamlarning ruhini ko'taradi. Bu esa ularning sog'ligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ehtimol, bu tushuntirish chindan ham to'g'ridir, ammo bu mavzu chuqurroq o'rganib ko'rilganda bundan ham qiziqroq xulosalar yuzaga keladi.

Allohga imon keltirish boshqa har qanday psixologik ta'sir ko'rsatishlardan kuchliroqdir. Diniy e'tiqod va jismoniy sog'liq o'rtasidagi bog'liqlik yuzasidan Garvard tibbiyot fakul'teti xodimi Doktor Xerbert Benson tomonidan o'tkazilgan keng miqyosli

¹ G'oziyev.E Ummumiy psixologiya "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" Toshkent 2009-y. 197-bet.

izlanish bu soha bo'yicha ajoyib xulosalarni keltirib chiqardi. O'zi dinga e'tiqodsiz bo'lishiga qaramay, Doktor Benson ibodat va Allohga imon keltirish boshqa har narsadan ko'ra inson sog'ligi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga keldi. Benson yana shunday xulosaga kelganligini ta'kidlaydiki, hech bir e'tiqod Allohga ishonishdan ko'ra ko'proq ruhiy xotirjamlik baxsh eta olmas ekan. E'tiqod, inson qalbi va jismi o'rtasidagi bu bog'liqlikka sabab nimada? Bensonning so'zlari bilan aytganda, inson tanasi va ruhi Allohga ishonishga to'g'rilab qo'yilgan.

Jahon tibbiyoti tomonidan asta-sekin tan olinayotgan bu haqiqat Qur'onda quyidagi so'zlar bilan vahiy qilingan sirdir: «... Ogoh bo'lingizki, Allohni zikr etish bilan qalblar orom olur.» («Ra'd» surasi, 28-oyat). Allohga imon keltiruvchi, unga ibodat va e'tiqod qiluvchi kimsalarning ruhan hamda jismonan sog'lomroq bo'lishiga sabab – ular o'zlarining yaratilishidagi maqsadga muvofiq ravishda yo'l tutishlaridir. Zamonaviy tibbiyot endilikda bu haqiqatni tushunib etish jarayonidadir.

Xuddi Patrik Glin yozganidek: «Keyingi yigirma besh yil ichida psixologiya bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shu narsani namoyon qildiki, ... dinga ishonish ruhiy sog'lomlik va baxtiyorlik o'rtasidagi eng izchil bog'liqliklardan biridir.»

Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, «ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqa sohalari o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bu nafaqat uning hayoti va faoliyatiga, fe'l-atvoriga, balki uning fikrlash darajasiga, kuchli hayajonlanishiga, tasavvur etishiga, mustahkam haqiqiy yoki soxta mantiqiy qonuniyatlarni kashf etishiga ta'sir ko'rsatdi. U ibtidoiy bo'lsa ham aqlli, fikr yurituvchi, ma'lum tahlilga qobiliyatli, konkret holatda fikr yurita oladigan, doimiy faoliyatida vujudga kelgan amaliy tajribalarga ega bo'lgan odam edi. Bunday tahlil nimaga asoslangan? Bilim miqdorining nihoyatda ozligi va uni doimiy takomillashib borishi, oldinda turgan hayotdan qo'rquv va uni yengishga bo'lgan intilish, amaliy tajribani uzluksiz ko'payishi, tabiat kuchlariga mutlaq tobelik va undan qutilishga tirishish, atrof-muhit injiqliklari va ularni yengish va h.k. - bularning barchasi shunga olib bordiki, uning ilk qadamidan nafaqat mantiqiy talabchanlik, balki hissiy-ijtimoiy, xayoliy-fantastik munosabatlar kelib chiqdi. Gap «ongli yovvoyi» yoki «abstrakt fikrlovchi kishi» to'g'risida borayotgani yo'q, ayni jamoaning qonun qoidalaridan chiqmagan holda, qolaversa 20-50 kishidan iborat bo'lgan kichik qabila, mehnat faoliyati jarayoni (ov, ozuqa izlash, qurol yasash, turar joyni jihozlash, olovni saqlash va h.k.) doimiy ijtimoiy munosabatlar, oilaviy urug'doshlik aloqalari va hodisalar jarayonida (nikoh aloqalari, tug'ilish va o'lim) ushbu jamoaning ruh homiylari, g'ayritabiiy kuchlar va voqeyiylik o'rtasidagi g'ayrioddiy aloqalar to'g'risida ibtidoiy tasavvurlar mustahkamlanib borgan. Real hayot bilan bir qatorda o'zga dunyo mavjudligi, marhumlar tiriklar hayotiga ta'sir eta olishi to'g'risidagi g'oyalar yuzaga keldi.»

Diniy adabiyotlarda, xususan Avesto, Tavrot, Injil, shuningdek qur'oni Karimda ham insoniyatning yaratilishi, uning yer yuzidagi ilk hayoti o'ziga xos tarzda talqin qilinadi. Ularning barchasida ta'kidlanishicha, dunyo va insoniyatning yagona yaratuvchi (Avestoda Axuramazda, Tavrotta Yahve, Injilda ota xudo, qur'onda Alloh) tomonidan yaratilgan. Odamzodning diniy tasavvurlari paydo bo'lishiga kelsak, Xudo insoniyatning otasi – Odamni yaratgach, unga ma'lum yo'l-yo'riq va ko'rsatmalarni bergan. Ushbu ko'rsatmalar din deb ataldi. Diniy ta'limotga ko'ra, inson boshdan mukammal holda yaratilgan, xuddi

shuningdek, din ham unga mukammal holda berilgan. Evolyusionizm ta'limotiga ko'ra, insonning paydo bo'lishi ham, dinning shakllanishi ham bosqichma-bosqich, soddadan murakkabga qarab rivojlanib borgan. Umuman olganda, barcha ilmiy adabiyotlarda dinning paydo bo'lishi borasida bildirilgan fikrlar ilmiy gipotezalardan iborat. Ushbu masalaning diniy adabiyotlardagi talqini esa har bir insonning diniy e'tiqodiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. – T.: O'zbekiston, 1996. – B.349;
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 3–4;
3. Asmolov A.G. Tolerantnost' kak kul'tura XXI veka // Tolerantnost': ob'edinyayem usiliya. M., Letniy Sad, 2002.
4. Bardier G. L. Sotsial'naya psixologiya tolerantnosti. SPb.: Izd-vo SP6GU.2005
5. Dilmurod, Shokirov. "Socio-psychological influence of hadiths on the formation of religious relations of the person." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.6 (2022): 1021-1025.
6. Yulchiboyeva, Dilfuza. "Main tasks of educational processes." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.6 (2021): 23-27.
7. Abdullaevna, Saliyeva Dilorom, and Rakhmonova Ayshakhan Oribovna. "Gender Stereotype In Adolescence The Study Of The Formation Of Properties." *Journal of Positive School Psychology* 6.10 (2022): 3446-3451.
8. Шокиров, Дилмурод. "ШАХС ДИНИЙ МУОСАБАТЛАРИ ШАКЛЛАНИШИДА ҲАДИСЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ТАЪСИРИ." *Central Asian Academic Journal of Scientific Research* 2.6 (2022): 332-336.
9. Akhmedov, B. A., Askarova, M. R., Xudayqulova, F. B., Tojiboeva, G. R., Artikova, N. S., Urinova, N. S., ... & Omonova, S. M. (2022). PEDAGOGICAL SCIENCE EDUCATION MANEGMENT IN TEACHING SCIENCE OF PEDAGOGICAL SCIENCES. *Uzbek Scholar Journal*, 10, 529-537.
10. Vladimirovich, G. Y. (2022). PRECEDENT-RELATED NOMINALS: CLASSES AND ORIGINS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 212-217.